INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

O‘zbek va ingliz tillaridagi derivatsion affikslarning o‘xshash va farqli jihatlari ot yasovchi affikslar misolida

Muxlisa Normurodova
Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistri
mnormurodova206@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi derivatsion affikslarning o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Maqolada so‘z yasovchi affikslarning turlari, ularning grammatik va semantic xususiyatlari hamda yangi so‘z hosil qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek va ingliz tillaridagi ayrim affikslarning ma’noviy mosligi misollar orqali tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli tomonlari yoritib berilgan. Tadqiqot davomida derivatsion affikslarni qiyosiy o‘rganish til o‘rganish jarayonida lug‘at boyligini kengaytirish, grammatika hamda tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: derivatsion affiks, affiks, prefiks, suffiks, so‘z yasalishi, qiyosiy tahlil, semantik xusuiyat, ingliz tili, o‘zbek tili, lug‘at boyligi.

Abstract. This article examines the similarities and differences between derivational affixes in the English and Uzbek languages through comparative analysis. The article discusses the types of derivational affixes, their grammatical and semantic features, and their role in forming new words. Furthermore, the semantic correspondence of certain affixes in Uzbek and English is analyzed through examples, and their common and distinctive aspects are highlighted. During the research, it was found that the comparative study of derivational affixes plays an important role in expanding vocabulary, as well as in developing grammar and translation skills in the process of language learning.

Keywords: derivational affix, affix, prefix, suffix, word formation, comparative analysis, semantic feature, English language, Uzbek language, vocabulary.

Аннотация. В данной статье на основе сравнительного анализа рассматриваются сходства и различия деривационных аффиксов в английском и узбекском языках. В работе освещаются виды словообразовательных аффиксов, их грамматические и семантические особенности, а также их роль в образовании новых слов. Кроме того, на примерах анализируется семантическое соответствие некоторых аффиксов английского и узбекского языков, выявляются их общие и отличительные черты. В ходе исследования установлено, что сравнительное изучение деривационных аффиксов имеет важное значение для расширения словарного запаса, развития грамматических навыков и совершенствования переводческой компетенции в процессе изучения языка.

Ключевые слова: деривационный аффикс, аффикс, префикс, суффикс, словообразование, сравнительный анализ, семантическая характеристика, английский язык, узбекский язык, словарный запас.

Kirish

Tilshunoslikda so‘z yasalishi muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sanaladi. So‘z yasalish jarayonida affikslar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular orqali yangi bir ma’nodagi so‘zlar hosil qilinadi hamda tilning lug‘at boyligi kengayadi. Ayniqsa, derivatsion affikslar yangi so‘z yaratishda faol ishtirok etib, tilning morfologik tizimini boyitib beradi. Ingliz va o‘zbek tillarida derivatsion affikslar keng qo‘llanilishiga qaramasdan, ularning qo‘llanilishi, tuzilishi va ma’noviy xususiyatlarida ayrim farqli va o‘xshash jihatlar mavjud.

Tilni unsurlarga ajratishning asosiy shartlaridan biri har bir unsurning o'z birligiga ega bo'lishidir. Morfologiyaning birligi esa nutq faoliyatidagi eng kichik ma'no anglatuvchi unsurdir. Bu unsurning nutqdagi ko'rinishi morf va tildagi ko'rinishi morfema deyiladi. Masalan, ingliz tilidagi fishers so'zi uchta ma'no anglatuvchi unsur, ya'ni fish - er - s dan tashkil topib, o'zbek tiliga baliqchilar deb tarjima qilinadi.[1] Morfemalarni yaxshi bilishning tarjima, so'zlashuv, grammatika va matnni tushuna olishdagi foydalari sezilarli darajada ekanligi ma'lum. Shu sababli ham ingliz tilidagi qo'shimchalarni o'zbek tilidagi derivatsion qo'shimchalar bilan taqqoslab o'rganish til o'rganuvchilar uchun juda samarali deb topdik.

Ingliz tilidagi **-ness** qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimcha bo'lib, o'zbek tilidagi -lik qo'shimchasiga ekvivalent hisoblanadi. Misol: illness – kasallik, weakness – zaiflik, darkness – qorong'ulik, kindness – mexribonlik. Ba'zi hollarda esa aynan -lik tarjimasini bermasdan shunchaki ot yasashi ham mumkin. Misol: happiness – baxt, sadness – qayg'u kabi. Quyida esa o'zbek tilidagi -lik qo'shimchasiga mos kela oladigan inglizcha derivatsion qo'shimchalarni ko'rishimiz mumkin.

-Lik	-ness Darkness- qorong'ulik	-ity Equality- tenglik	-ance/-ence Existence- mavjudlik	-hood Childhood- bolalik	-dom Freedom- erkinlik	-cy Accuracy- aniqlik

Ingliz tilidagi ushbu qo'shimchalar deyarli -lik qo'shimchasiga mos keladi va ma'lum bir davr, holat, jarayon, faoliyat bildiruvchi otlarni yasashga xizmat qiladi. Misol: motherhood - onalik(davr), freedom - erkinlik(holat), activity -faollik(jarayon) kabilar. Ingliz tilida **-cy** qo'shimchasi sifatlardan mavhum otlar yasaydi va aynan shu jihati bilan ham -lik qo'shimchasiga ma'no jihatdan yaqin hisoblanadi. Masalan, accurate – accuracy(aniq – aniqlilik), private – privacy(shaxsiy – maxfiylik), efficient – efficiency (samarali – samamradorlik).

-er, qo'shimchasi ingliz tilidagi eng faol qo'shimcha hisoblanadi. U asoson fe'lga qo'shilib, ish-harakatni bajaruvchi shaxs yoki narsani bildiruvchi ot hosil qiladi. Mazkur qo'shimcha o'zbek tilidagi -uvchi, va -chi qo'shimchalariga ma'no jihatdan yaqin hisoblanadi. Quyida -er qo'shimchasini ish-harakatni bajaruvchi shaxs otini yasagan shakllarini misol qilamiz: teach – teacher(o'qituvchi), write – writer(yozuvchi), drive -driver(haydovchi). Ba'zan -er biror vazifani bajaruvchi predmetni bildirishi ham mumkin: print – printer, mix – mixer, wash – washer. Shuningdek, ingliz tilidagi -or qo'shimchasi ham shu ma'nodagi fe'llarni yasab, o'zbek tilidagi -chi, -uvchi shaklidagi otlarni yasashga xizmat qiladi. Masalan, act – actor, create – creator, translate – translater, educate – educator.

-uvchi, chi kasb oti yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi.	Uning inglizchadagi ma'nodosh variant sifatida esa -er, -or olish mumkin.
Misol, o'qitmoq – o'qituvchi, qo'shiq – qo'shiqchi.	Misol, teach – teacher, sing – singer.

Xususan, **-ian** affiksi ham kasb, mutaxassislik egasini yoki muayyan joy, xalq, soha bilan bog'liq shaxsni ifodalaydi. Misol, musician (musiqachi), historian (tarixchi), librarian (kutubxonachi) ammo Canadian so'zida (kanadalik) joy bilan bog'liq shaxs ma'nosini ifodalamoqda. Mazkur qo'shimcha o'zbek tilidagi -chi, shunos, -lik degan affikslarga ma'nodosh bo'la oladi.

-ee ingliz tilidagi ot yasovchi qo'shimcha bo'lib, ko'p hollarda harakatni qabul qiluvchi shaxsni bildirib keladi. Ya'ni -er harakatni bajaruvchi shaxsni anglatsa, -ee ko'pincha harakat ta'siriga uchragan yoki undan foydalangan shaxsga aytiladi. Misol, employ(band qilmoq, ishlatmoq) – employer(ish beruvchi) – employee(xodim), examine(imtihon olmoq) – examiner(imtihon oluvchi) – examinee(imtihon topshiruvchi). Ushbu qo'shimcha ma'no jihatdan -er qo'shimchasiga zid vazifani bajaradi, chunki -er harakat bajaruvchisini, -ee essa harakatni qabul qiluvchini bildiradi. Mazkur qo'shimchani o'zbek tilidagi -uvchi qo'shimchasiga qisman yaqin ma'nodosh deb aytsak bo'ladi ammo ular bir xil vazifani bajarmaydi. Chunki -uvchi qo'shimchasi esa ham ish harakatni

[1] Bozorboyeva X.B., Abdullaxatova X., Yusupova S.A. Ingliz tilida so'z yasalish usullari (morfologik usul, semantik usul, kompozitsion usul) // Proceedings of International Educators Conference. Rome, Italy, 2022. B. 303.

bajaruvchinisini, ham harakatni qabul qiluvchini bildiradi. Masalan, o‘qituvchi so‘zida ish harakatni bajaruvchisini, o‘quvchi so‘zida esa ish harakatni qabul qiluvchi ma’nosini bildiradi.

-ship affiksi odatda holat, xususiyat, musonabat kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ushbu qo‘shimcha o‘zbek tilidagi **-lik, -chilik** kabi qo‘shimchalarga to‘g‘ri keladi. Misoll uchun quyidagilarni keltiramiz: friend(do‘st) – friendship(do‘stlik), leader(yetakchi) – leadership(yetakchilik)

-tion/sion ingliz tilidagi eng ko‘p tarqalgan ot yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi. Ular asosan fe’l so‘z turkumidagi so‘zlarni ot so‘z turkumiga o‘zgartiradi. Misol: educate(ta’lim bermoq, o‘qitmoq) – education(ta’lim), create(yaratmoq) – creation(yaratilish). Mazkur qo‘shimchani nisbatan o‘zbek tilidagi -sh, -lik, qo‘shimchalariga mos kela oladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. -tion, -sion qo‘shimchalari yasagan ot so‘z turkumidagi so‘zda ko‘pincha harakat, jarayon, holat, natija ma’nolarini ifodalaydi. Aynan shu jihati bilan ham harakat nomi yasovchi qo‘shimchalarga yaqin hioblanadi.

Xulosa

Ingliz tilidagi ot yasovchi qo‘shimchalarning o‘zbek tilidagi mos variant anniq bor deyish mumkin, ammo ular qisman mos keladi va farqli jihatlari ham mavjud. Xususan, buni -uvchi affiksining ingliz tilidagi -er va -ee qo‘shimchalariga ma’nodosh bo‘la olishi kabi misolllarni yuqorida ko‘rib chiqdik. Hech bir qo‘shimcha bizning on atilimizdagi affikslar bilan 100% ma’nodoshlik hosil qila olmaydi. Ingliz tilidagi ot yasovchi qo‘shimchalarning bizga ma’nosi mos keladigan shakllari ko‘pincha -lik, -chilik, uvchi, -chi, -shunos ma’nolarini beradi. Xolbuki, bizning ona tilimizda ot yasovchi affikslar miqdor jihatdan ko‘proq. Misol uchun, -chi, -kash, -paz, -shunos, -boz, -gar(kar), -kor, -voy, -uvchi qo‘shimchalarining vazifasini ingliz tilidagi -er,-or, -ian qo‘shimchalari bajara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973.
2. Plag I. Word-Formation in English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. Yule G. The Study of Language. – 7th ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. Fromkin V., Rodman R., Hyams N. An Introduction to Language. – Boston: Cengage Learning, 2018.
3. Bauer L. English Word-Formation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. Katamba F. English Words: Structure, History, Usage. – London: Routledge, 2005.
4. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
5. Carstairs-McCarthy A. An Introduction to English Morphology. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2002
6. Lieber R. Introducing Morphology. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. Aronoff M., Fudeman K. What is Morphology? – 3rd ed. – Hoboken: Wiley-Blackwell, 2022.
7. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985.
8. Matthews P. H. Morphology. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. Booij G. The Grammar of Words: An Introduction to Linguistic Morphology. – Oxford: Oxford University Press, 2012.